



## QURILISH ISHLARI

2020- yil yanvar-sentabr oylarida

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida jami 1612,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 29,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 58,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 1419,4 mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 88,0 % ni tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 164,1 mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 74,8 % ni tashkil qildi.



**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu-o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mir va boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



● 2020- yil yanvar-sentabr

● 2019- yil yanvar-sentabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 67,8 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 24,3 % ni tashkil eti.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 7,9 % to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

2019- yil yanvar-sentabr

7,9



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

24,3



Fuqarolik obyektlarini  
qurish ishlari

67,8



Bino va inshootlarni  
qurish ishlari

2020- yil yanvar-sentabr

7,9



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

24,3



Fuqarolik obyektlarini  
qurish ishlari

67,8



Bino va inshootlarni  
qurish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topadi.*




## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi

(mlrd. so‘m)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1612,7</b>	<b>29,2</b>	<b>1419,4</b>	<b>164,1</b>
<i>shaharlar</i>				
<b>Guliston</b>	<b>568,0</b>	<b>9,3</b>	<b>513,1</b>	<b>45,7</b>
<b>Shirin</b>	<b>77,3</b>	<b>0,3</b>	<b>70,9</b>	<b>6,2</b>
<b>Yangiyer</b>	<b>142,5</b>	<b>-</b>	<b>130,2</b>	<b>12,4</b>
<i>tumanlar</i>				
<b>Boyovut</b>	<b>122,9</b>	<b>0,8</b>	<b>105,7</b>	<b>16,4</b>
<b>Guliston</b>	<b>72,2</b>	<b>0,3</b>	<b>61,4</b>	<b>10,5</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>136,9</b>	<b>17,1</b>	<b>105,3</b>	<b>14,5</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>112,2</b>	<b>-</b>	<b>101,5</b>	<b>10,7</b>
<b>Sardoba</b>	<b>29,3</b>	<b>0,3</b>	<b>22,0</b>	<b>7,0</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>65,3</b>	<b>0,3</b>	<b>55,5</b>	<b>9,5</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>190,6</b>	<b>0,4</b>	<b>171,4</b>	<b>18,5</b>
<b>Xovos</b>	<b>95,5</b>	<b>0,4</b>	<b>82,4</b>	<b>12,7</b>

## Hududlarda qurilish ishlarining o‘shish sur‘atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati 109,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xovos tumanida 98,8 % hamda Shirin shahrida 98,7 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘shish sur‘ati Yangiyer shahrida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 99,3 % ni tashkil qildi.



## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1419,4 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 88,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 29,2 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 58,3 % ni tashkil qildi.


Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 164,1 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlarining 10,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 74,8 % ni tashkil qildi.






## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



○ Nodavlat mulkchilik shakli



○ Davlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 62,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1550,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,2 % ni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga koʻpayish) tashkil qildi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 35,2 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 11,8 %, Yangiyer shahriga 8,8 %, Mirzaobod tumaniga 8,5 % va Boyovut tumanida 7,6 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37  
(67) 236-86-27

